



AMIR TEMUR DAVLATCHILIGI TARIXI VA GEOGRAFIK HUDUDLARI

Nasriddinova Mahbuba Jololiddinovna¹,
Toshtemirova Ixtiyora Azamatovna²

^{1,2} Yangiqo'rg'on tuman 4-maktab o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6281114>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:15-fevral 2022

Ma'qullandi:20-fevral 2022

Chop etildi:25-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Amir Temur, davlatchilik, tarix, rivojlanish, davlat boshqaruvi, siyosiy kurash, geografik hudud.

ANNOTATSIYA

Yevroosiyaning bepoyon hududlarini o'z ichiga ulkan va qudratli Temuriylar davlati nainki O'zbekiston, O'rta Osiyo, balki butun jahon xalqlari tarixida muhim sifat o'zgarishlarini boshlab bergan. Avvalo Amir Temurning davlatchilik siyosati Yevroosiyo mintaqasida turli ilmiy va madaniy maktablarning qo'shilishiga va kashfiyot va uslublarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. O'rta Osiyoda sharq ilmiy tafakkuri umumlashib, uyg'unlashib, bir-birining eng ilg'or taraflarini olib yangi taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarildi, o'ziga xos Amir Temur va temuriylar davri ilmiy va falsafiy tafakkuri paydo bo'ldi, ilm-fan integrasiyasi kuchaydi, bir so'z bilan aytganda millatlararo ko'priklari o'rnatildi. Ushbu maqolada, Amir Temur davlatchiligi tarixi va geografik hududlari haqida umumiy fikr va mulohazalar yuritiladi.

27 davlatni o'z ichiga bepoyon Yevroosiyo hududlarida tashkil topgan ulkan saltanatda tinchlik-xotirjamlikning o'rnatilishi, tashqi xavflarning bartaraf etilishi, mamlakatdagi keng obodonchilik ishlarining yo'lga qo'yilishi, ilm-fan va ma'naviyatga e'tibor davlat va jamiyat hayotida muhim burilishlarni boshlab bergan. U Tinch okeanidan to Atlantika okeaniga qadar katta hududlarda ta'sir kuchiga ega bo'lgan, o'z davrining geosiyosiy muvofiqligini ta'minlashni yaxshi bilgan favqulodda iqtidor, aql, bilim va kuch egasi bo'lgan.

Amir Temurning homiyiligi va rahbarligi ostida o'sha davrning mashhur va bilimi o'tkir olimu ulamolari, usta quruvchilar, din peshvolari, tabiblar va boshqa professional mutaxassislar Samarqandga taklif etildi. Samarqandda dunyoning eng yirik kutubxonalarini bunyod etildi. Olimlar bu yerda ilmiy izlanishlar bilan qizg'in shug'ullana boshlaganlar. Temuriylar davlatining boshkenti bo'lgan Samarqand Sharqning intellektual va madaniyat markaziga aylangan.

Amir Temur shaxsida biz o'sha zamonning eng yetuk ma'naviyat sohibini



ko'ramiz. U avvalgi ajdodlar tarixini yaxshi bilgan, ularning xatolari va yutuqlaridan xulosa chiqara olgan, egallagan har bir bilimni amaliyotga qo'llay olgan zukko inson edi. U ahloqi va odobi kamolotga yetgan, iymoni baquvvat, adolat uchun kurashadigan to'g'riso'z, yetimparvar, ilm-fanni sevguvchi, bir umr o'rganishdan charchamaydigan ilmu tolib hukmdor edi. U diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallagan bo'lib, majlisi olimu ulamolar bilan boshqarilar edi. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Boysung'ur Mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo kabi shoh va shahzodalar, temuriy malikalar Temuriylar ma'naviyati poydevorini o'zlarining ilm-ma'rifatga bo'lgan hurmati tufayli mustahkamlab bordilar va bu yo'lda o'z hisoblaridan ko'plab qurilishlar va tashkiliy-moliyaviy ishlarni amalga oshirdilar. Avliyolar avliyosi, shoirlarning sultoni Alisher Navoiy ijodiga ham o'sha davrning ilmiy-ijodiy muhitining ta'siri bo'lganligini anglab yetish mumkin.

Amir Temur davri davlatchilik tarixiga oid yana bir eng muhim asar "Temur tuzuklari"dir. Asl nusxasining topilmaganligi uchun uning yozilish davri sanasi olimlar tomonidan aniqlanmagan bo'lsa-da, ammo unda tavsiflangan tarixiy jarayonlar, voqealarning aksariyati Amir Temur davrida yozilgan boshqa ma'lumotlar bilan mos keladi, unda mavjud ba'zi qimmatli dalil va voqealar boshqa manbalarda uchramaydi.

"Tuzuklar" o'zining siyosiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy mazmunining boyligi bilan mashhur bo'lgan va turli davrlarda ko'plab tillarga tarjima qilingan, davlat boshqaruvida undagi g'oyalardan foydalanilgan. "Tuzuklar" Amir Temur davlatchilik tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi va uning mazmun-mohiyatini alohida mavzularda ochib berish dolzarb masaladir.

Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al-Havofiy –Hofizi Abru (1431 yilda vafot etgan) ham Amir Temur davrining zabardast tarixnavislaridan biri hisoblanadi. U "Majmu'ai Hofizi Abru", "Zubdat ut-tavorixi Boysung'uriy" ("Boysung'ur Mirzoning saralangan tarixi") kabi bir necha asarlar muallifidir. "Zubdat ut-tavorixi Boysung'uriy" asarida olamning yaralishidan to 1426 yilgacha bo'lgan tarixiy voqealar yozilgan. Hofizi Abru o'z davri tarixiy voqealarini shohid sifatida tahlil etadi va uning ma'lumotlari ham milliy davlatchilik tariximizni o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Amir Temur davri tarixnavislaridan biri Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muxammad al-Xavofiydir. Uning "Mujmali Fasihiy" ("Fasihiy to'plami") nomli asari 1441–1442 yillarda yozilgan. Bunda tarixiy voqealar qisqa va lo'nda yilma-yil, davriy ketma-ketlikda berilgan va u ortiqcha mubolag'a, maqtov va sub'yektiv hissiyotlardan holi asar hisoblanadi. U Amir Temur davridagi tarixiy voqealarga aniqliklar kiritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur davrida bo'lib o'tgan voqealarni yozgan tarixchilardan biri Kamoliddin Abdurrazzoq ibn Mavlon Jaloliddin Ishoq as-Samarqandiy (1413–1483) bo'lib, "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi") asari uning tomonidan 1470 yilda yozilgan. Unda Amir Temur, Shohruh Mirzo, Ulug'bek va boshqa temuriy hukmdorlarning ichki va tashqi siyosati, iqtisodiy, ma'naviy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Amir Temur va temuriylar davrida Davlatshoh Samarqandiy (1435-1495), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) kabi ko'plab davlat arboblari, sayyoh tarixnavislarning asarlari yaratilgan bo'lib, ularni barchasiga batafsil to'xtalish imkoniyati bo'lmasa-da, tadqiqot jarayonida ulardan keng foydalanishga harakat qilindi.



Xulosa qilib aytganda, tahlillar natijasida Amir Temur tarixiga tegishli manbalarda o'xshash ma'lumotlar uchragani bilan, ular bir-biridan davrida, sifatida, yozilish uslubi, dalil – ma'lumotlarning boyligi va boshqa jihatlarida farqlar mavjudligi seziladi. Ularning barchasi ham o'ziga xosligi va qimmatini bilan ajralib

turadi. Tarixchi Amir Temurni irodasi mustahkam, qattiqqo'l va adolatli davlat rahbari ekanligi, davlatni qonunlarga asoslangan holda boshqargani hamda o'zi shohid bo'lgan voqealar haqida qimmatli ma'lumotlar berib o'tgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamadaliyev, R (2019) "Ismail aka – scientist of Temur's life," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 11.
2. J.Yaxshilikov. Sh.Axadov. Temiriyalar ma'naviyati. Toshkent. Fan nashriyoti -1999
3. S.Mamashokirov. Sh.Tog'ayev. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. Toshkent. Ma'naviyat, 2007 yil.
4. B.Axmedov, A.Aminov. "Temur tuzuklari". Toshkent - 2007.